



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 4-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxonada samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини худудий ташкил этиш ва ихтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta’siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo‘jayeva I.O‘. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo‘nak to‘lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta’siri va ularni optimallashtirish bo‘yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O‘zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to‘lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo‘llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko‘rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellashtirish va prognozlash.....	216
Xo‘jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo‘g‘inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo‘ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O‘zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakilanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarining iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kўrinishlari.....	287
Юлдашев А. Фарғона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O‘zbekiston sug‘urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo‘nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko‘paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta’lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo‘lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog‘ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxonada iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiri.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида энгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojidinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifi yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Мақушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejarov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

DAVLAT TIBBIY SUG‘URTA TIZIMIDA BEPUL XIZMATLAR, REIMBURSASIYA VA FOYDALANISH SHARTLARI

БЕСПЛАТНЫЕ УСЛУГИ, ВОЗМЕЩЕНИЕ РАСХОДОВ И УСЛОВИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО СТРАХОВАНИЯ.

FREE SERVICES, REIMBURSEMENT AND TERMS OF USE IN THE STATE HEALTH INSURANCE SYSTEM

Mamatov Baxadir Safaraliyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, DSc
ORCID: 0009-0004-6227-5103

Umurzakova Mo‘tabarxon Nodir qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
ORCID: 0009-0002-2279-9629

Annotasiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda davlat tibbiy sug‘urtasi tizimini joriy etishning asosiy yo‘nalishlari va uning aholini tibbiy xizmatlar bilan ta‘minlashdagi ahamiyati tahlil qilingan. Xususan, davlat tibbiy sug‘urtasi tizimi doirasida bepul tibbiy xizmatlar ko‘rsatish, dori-darmon xarajatlarini reimbursasiya mexanizmi orqali qoplash hamda tibbiy xizmatlardan foydalanish tartiblari yoritilgan. Tadqiqotda kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketi, elektron resept va elektron yo‘llanma mexanizmlari, shuningdek aholining tibbiy xizmatlardan foydalanishdagi moliyaviy himoyasini ta‘minlash masalalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: davlat tibbiy sug‘urtasi, kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketi, reimbursasiya, elektron resept, tibbiy xizmatlar moliyalashtirilishi, moliyaviy himoya, sog‘liqni saqlash tizimi.

В данной статье проанализированы основные направления внедрения системы государственного медицинского страхования в Узбекистане и её значение в обеспечении населения медицинскими услугами. В частности, рассмотрены вопросы предоставления бесплатных медицинских услуг в рамках системы государственного медицинского страхования, механизмы возмещения расходов на лекарственные средства посредством системы реимбурсации, а также порядок пользования медицинскими услугами. В исследовании изучены гарантированный пакет медицинских услуг, механизмы электронного рецепта и электронного направления, а также вопросы обеспечения финансовой защиты населения при получении медицинской помощи.

Ключевые слова: государственное медицинское страхование, гарантированный пакет медицинских услуг, реимбурсация, электронный рецепт, финансирование медицинских услуг, финансовая защита, система здравоохранения.

This article analyzes the main directions of introducing the state medical insurance system in Uzbekistan and its importance in providing the population with medical services. In particular, the provision of free medical services within the framework of the state medical insurance system, mechanisms for reimbursing the cost of medicines through the reimbursement system, and the procedures for using medical services are considered. The study examines the guaranteed package of medical services, electronic prescription and electronic referral mechanisms, as well as issues related to ensuring the financial protection of the population when receiving medical care.

Keywords: state medical insurance, guaranteed package of medical services, reimbursement, electronic prescription, healthcare financing, financial protection, healthcare system.

Bugungi kunda aholining tibbiy xizmatlardan samarali foydalanishini ta'minlash, sog'liqni saqlash tizimini barqaror moliyalashtirish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirish davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aholining tibbiy xizmatlar uchun cho'ntakdan to'lovlari yuqori bo'lgan sharoitda tibbiy xizmatlardan foydalanishda moliyaviy himoyani ta'minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, sog'liqni saqlash tizimini samarali tashkil etishda davlat tibbiy sug'urtasi muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ushbu tizim tibbiy xizmatlarni barqaror moliyalashtirish, aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish hamda tibbiy xizmatlar xarajatlari bilan bog'liq moliyaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ham sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish doirasida davlat tibbiy sug'urtasi tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ushbu tizim tibbiy xizmatlarni moliyalashtirishda yangi iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish, kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketini shakllantirish, dori-darmon xarajatlarini reimbursasiya mexanizmi orqali qoplash hamda elektron resept va elektron yo'llanma kabi raqamli boshqaruv vositalarini qo'llashni nazarda tutadi.

Shu nuqtai nazardan, davlat tibbiy sug'urtasi tizimini joriy etishning ahamiyatini tahlil qilish, uning sog'liqni saqlash tizimida moliyaviy samaradorlikni oshirishga ta'sirini o'rganish hamda aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishdagi rolini tadqiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish, tibbiy xizmatlar bozorini shakllantirish va davlat moliya siyosati doirasida sug'urta munosabatlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari A.Sh. Bekmurodov, A.V. Vaxabov, T.S. Malikov, N.X. Xaydarov, N.X. Jumaev, X.I. Baev, P.Z. Xoshimov, A.S. Nurillaev va X.M. Shennaevlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan [1–8]. Ushbu olimlarning ilmiy asarlarida sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish manbalari, davlat moliya siyosati, tibbiy xizmatlar bozorini shakllantirish, ijtimoiy sohani moliyalashtirishning iqtisodiy mexanizmlari hamda aholini tibbiy xizmatlar bilan ta'minlash masalalari keng yoritilgan.

Shu bilan birga, iqtisodiy adabiyotlarda sog'liqni saqlash tizimida davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarining joriy etilishi, uning moliyaviy samaradorligi va davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyatini kompleks iqtisodiy tahlil qilish masalalari yetarlicha mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Ayniqsa, davlat tibbiy sug'urtasi doirasida tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish, reimbursasiya mexanizmlari, DRG asosida xizmatlar uchun to'lov tizimi hamda byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini baholash masalalari chuqur ilmiy tahlilni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, davlat tibbiy sug'urtasi tizimining amaliy natijalarini tahlil qilish, uning aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish va sog'liqni saqlash tizimida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Muammoning dolzarbligi, uning iqtisodiy adabiyotlarda yetarlicha o'rganilmaganligi hamda tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati mazkur mavzuni tanlashga asos bo'ldi.

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida iqtisodiy tadqiqotlarni amalga oshirishning umum-ilmiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Xususan, tadqiqotda tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni guruhlash hamda selektiv tanlab tahlil qilish usullari qo'llanildi.

O'zbekistonda davlat tibbiy sug'urtasi tizimi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Ushbu tizimning asosiy maqsadi aholini kafolatlangan tibbiy xizmatlar bilan ta'minlash, dori-darmon xarajatlarini qisman yoki to'liq qoplash, shuningdek tibbiy xizmatlardan foydalanishda moliyaviy himoyani kuchaytirishdan iborat. Davlat tibbiy sug'urtasi doirasida bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatish va dori vositalarini taqdim etish mexanizmlari yanada aniqlashtirildi. Unga ko'ra, aholidan davlat tibbiy sug'urtasi uchun qo'shimcha to'lov undirilmaydi, moliyalashtirish davlat byudjetiga to'lanadigan soliqlar hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat tibbiy sug'urtasi tizimi doirasida, avvalo, kafolatlangan paketga kiritilgan tibbiy xizmatlar bepul ko'rsatiladi. Bu xizmatlar birlamchi tibbiy-sanitariya yordami, belgilangan tartibda

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

ambulator va statsionar yordam, ayrim ixtisoslashtirilgan xizmatlar hamda elektron yo‘llanma yoki belgilangan tartib asosida ko‘rsatiladigan tibbiy yordam turlarini qamrab oladi.

1-jadval

Davlat tibbiy sug‘urtasi tizimi doirasida bepul ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar [9]

№	Tibbiy xizmat turi	Mazmuni
1	Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami	Oilaviy shifokor ko‘rigi, profilaktik tekshiruvlar, birlamchi diagnostika xizmatlari
2	Ambulator tibbiy xizmatlar	Poliklinika sharoitida ko‘rsatiladigan mutaxassis shifokorlar konsultatsiyasi va tibbiy xizmatlar
3	Statsionar tibbiy xizmatlar	Kasalxonalarda davolanish, operatsiyalar va statsionar tibbiy yordam
4	Ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar	Yuqori texnologiyali diagnostika va davolash xizmatlari (KT, MRT va boshqalar)
5	Elektron yo‘llanma asosida xizmatlar	Shifokor tomonidan berilgan elektron yo‘llanma asosida yuqori bosqich tibbiy muassasalarda xizmat ko‘rsatish
6	Elektron resept asosida dori vositalari	Shifokor tomonidan tayinlangan dori vositalarini dorixonalar orqali bepul berish (reimbursasiya mexanizmi)

Shuningdek, shifokor tomonidan rasmiylashtirilgan elektron resept asosida kafolatlangan paket doirasidagi dori vositalari bemorlarga dorixonalar orqali bepul beriladi va ularning xarajatlari Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

1-jadval ma‘lumotlarida davlat tibbiy sug‘urtasi tizimi doirasida aholiga taqdim etilayotgan kafolatlangan tibbiy xizmatlar turlari va ularning amalga oshirilish mexanizmi aks ettirilgan bo‘lsa, quyidagi 2-jadvalda mazkur xizmatlardan foydalanish ko‘lami hamda ularni moliyalashtirish dinamikasi statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilingan.

2-jadval

Davlat tibbiy sug‘urtasi tizimi doirasida bepul tibbiy xizmatlar ko‘rsatilishi dinamikasi [10]

Ko‘rsatkichlar	2023 yil	2024 yil	2025 yil
Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami (murojaatlar soni, ming nafar)	820	960	1 100
Ambulator tibbiy xizmatlar (ming nafar)	540	620	700
Statsionar tibbiy xizmatlar (ming nafar)	210	240	260
Ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar (ming nafar)	95	120	150
Elektron resept asosida berilgan dori vositalari (mingta resept)	20,0	49,5	75–80
Reimbursasiya dasturi doirasida qoplangan mablag‘ (mlrd so‘m)	1 398	4 269	6 000

2-jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, davlat tibbiy sug‘urtasi tizimi joriy etilgandan keyin tibbiy xizmatlardan foydalanish ko‘lami yildan-yilga oshib bormoqda. Ayniqsa, elektron resept va reimbursasiya mexanizmining joriy etilishi dori-darmon xarajatlarini davlat tomonidan qoplash hajmining keskin oshishiga olib kelgan. Bu esa aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish va cho‘ntakdan to‘lovlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Reimbursasiya dasturidagi dori vositalari, asosan, kafolatlangan paket doirasida tibbiy yordam oluvchi bemorlarga beriladi. Bu yerda asosiy shart dori vositasi shifokor tomonidan elektron resept orqali tayinlangan bo‘lishi kerak. Ya‘ni bemor dori vositasini o‘zboshimchalik bilan emas, balki rasmiy tibbiy ko‘rik va tashxis asosida, elektron resept orqali oladi. Mazkur tartib dorilarni manzilli yetkazish, asossiz xarajatlarni kamaytirish va byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Reimbursasiya dasturi doirasida dori vositalarini taqdim etish mexanizmi[9]

№	Ko‘rsatkich	Mazmuni
1	Benefitsiarlar (kimlarga beriladi)	Kafolatlangan tibbiy xizmatlar paketi doirasida tibbiy yordam oluvchi bemorlar
2	Dori tayinlash tartibi	Shifokor tomonidan elektron resept orqali tayinlanadi
3	Dori vositalarini olish usuli	Dorixonalar orqali elektron resept asosida beriladi
4	Moliyalashtirish manbai	Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi
5	Tizimning asosiy maqsadi	Dori vositalarini manzilli yetkazish va aholining dori-darmon xarajatlarini kamaytirish
6	Iqtisodiy samarasi	Asossiz xarajatlarni qisqartirish va byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish

3-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, reimbursasiya mexanizmi dori vositalarini tayinlash va tarqatish jarayonini shaffof va manzilli tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Elektron resept tizimining joriy etilishi dori vositalarini nazorat qilish imkoniyatini oshirib, asossiz xarajatlarni kamaytirish va byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishga zamin yaratadi.

Reimbursasiya dasturi doirasida dori vositalari bilan ta’minlash dinamikasi (2023–2025 yy.)[10]

Ko‘rsatkichlar	2023 yil	2024 yil	2025 yil
Reimbursasiya dasturi bo‘yicha qamrab olingan bemorlar soni (nafar)	12 425	23 320	35 000
Elektron reseptlar soni (ta)	20 049	49 464	75 000–80 000
Reimbursasiya qilingan dori vositalari xarajatlari (mlrd so‘m)	1 397,9	4 269,4	6 000,0

4-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, reimbursasiya dasturi joriy etilgandan keyin dori vositalari bilan ta’minlangan bemorlar soni sezilarli darajada oshgan. Xususan, 2023 yilda 12 mingdan ortiq bemor mazkur dastur orqali dori vositalari bilan ta’minlangan bo‘lsa, 2025 yilga kelib bu ko‘rsatkich 35 ming nafarga yetishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga, elektron reseptlar soni ham keskin ortib, tizimning raqamli boshqaruv mexanizmi rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Bu holat davlat tibbiy sug‘urtasi tizimi doirasida dori-darmon xarajatlarini manzilli va shaffof tarzda moliyalashtirish hamda byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi tizimidan foydalanishning ham aniq shartlari mavjud. Rasmiy axborotlarga ko‘ra, kafolatlangan paketga kiritilgan bepul tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun fuqaro belgilangan muddatlarda tegishli tibbiy ko‘riklardan o‘tishi, oilaviy shifokorga yoki tibbiyot brigadasiga murojaat qilishi lozim. Zarur hollarda keyingi bosqich tibbiy xizmatlar shifokor yo‘llanmasi, elektron reyestr va tasdiqlangan tartiblar asosida tashkil etiladi. Demak, tizimdan foydalanishning asosiy sharti fuqaroning rasmiy tibbiy tizimga murojaat qilishi, belgilangan yo‘naltirish tartibiga amal qilishi va elektron resept yoki elektron yo‘llanma mexanizmi orqali xizmat olishidir. Mazkur tizimning muhim jihati shundaki, u aholining cho‘ntakdan to‘lovlarini qisqartirishga xizmat qiladi. Ilgari ko‘plab bemorlar dori-darmon va ayrim tibbiy xizmatlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lov qilishga majbur bo‘lgan bo‘lsa, yangi tartibda davlat byudjeti va Davlat tibbiy sug‘urta jamg‘armasi orqali moliyaviy qoplash mexanizmlari kuchaytirilmoqda. Bu esa ijtimoiy adolatni ta’minlash, imtiyozli va ehtiyojmand toifalarni qo‘llab-quvvatlash hamda tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, davlat tibbiy sug‘urtasi tizimi doirasida fuqarolar uchun kafolatlangan tibbiy xizmatlar va elektron resept asosida dori vositalari bepul taqdim etiladi. Reimbursasiya dasturi shifokor tomonidan belgilangan dori vositalarini olish imkonini yaratadi, tizimdan foydalanish esa oilaviy shifokorga murojaat qilish, tibbiy ko‘rikdan o‘tish va rasmiy yo‘llanma tartibiga amal qilish

bilan bog‘liq. Shu jihatdan, davlat tibbiy sug‘urtasi nafaqat tibbiy xizmatlarni moliyalashtirishning yangi modeli, balki aholining moliyaviy himoyasini kuchaytiruvchi muhim ijtimoiy mexanizm ham hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bekmurodov A.Sh. O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va barqaror rivojlantirish masalalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.
2. Vaxabov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018.
3. Malikov T.S. Davlat moliyasi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2015.
4. Xaydarov N.X. Davlat byudjeti. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2019.
5. Jumaev N.X. O‘zbekistonda davlat moliyasi va byudjet siyosati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
6. Baev X.I. Ijtimoiy sohani moliyalashtirishning iqtisodiy asoslari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2016.
7. Xoshimov P.Z. O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
8. Nurillaev A.S., Shennaev X.M. Sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirish va uni takomillashtirish masalalari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2020.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.09.2024 yildagi “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-311-son qarori.
10. <https://dtsj.uz/uz/davriy-hisobotlar/> Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

УДК:338.43

**ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ ХУДУДИЙ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА
ИХТИСОСЛАШТИРИШНИНГ ИЛМИЙ АСОСЛАРИ**

**НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ И
СПЕЦИАЛИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

**SCIENTIFIC BASIS OF TERRITORIAL ORGANIZATION AND SPECIALIZATION OF
AGRICULTURE**

Ешимбетов Уктамжон Худайбергенович

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти “География ўқитиш метоикаси”
кафедраси доценти, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация

Мақолада қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва уни ихтисослаштиришнинг назарий асослари ўрганилган. Ҳудудий ташкил этиш ва ихтисослаштиришга таъсир этувчи омиллар кўриб чиқилган. Шунингдек, ҳудудий ташкил этиш ва ихтисослаштириш бўйича олимлар фикрлари бир тизимга келтирилиб таҳлил қилинган. Бундан ташқари, қишлоқ хўжалигини концентрация ва интенсив ривожлантириш масалаларига ҳам тўхталинган.

Калит сўзлар: қишлоқ хўжалиги, ҳудудий ташкил этиш, ихтисослаштириш, самарадорлик, деҳқончилик, чорвачилик, концентрация, интенсив, тармок, минтақа.

В статье изучен теоретические основы территориальной организации сельского хозяйства и его специализации. Рассмотрены факторы, влияющие на территориальную организацию и специализацию. Также, были сведены в одну систему и проанализированы